



UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA HAMKORLIKDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHDA RAHBAR XODIMLARNING FUNKSIONAL VAZIFALARI

¹U.N.Karimova

NamDU M-TMB-AU-21 guruhi 2-bosqich magistranti

²Q.O.Shodmanov

Ta'lismenejmenti kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7559564>

ARTICLE INFO

Received: 13th January 2023

Accepted: 23th January 2023

Online: 23th January 2023

KEY WORDS

Umumiy o'rta ta'lismuassasasi, hamkorlikda boshqaruv, hamkorlikdagi boshqaruv faoliyati, hamkorlikdagi boshqaruvning maqsadi, rahbar xodimlarning funksional vazifalari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lismuassasalarida hamkorlikda boshqaruvni tashkil etishda hamkorlikdagi boshqaruvning maqsadi, rahbar xodimlarning funksional vazifalari, umumiy o'rta ta'lismuassasalari rahbar xodimlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirish, uning natijaviyligini ta'minlash, o'quvchilar va pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, mакtab bilan mahalla va otonalarning hamkorliklarini ta'minlash hamda belgilangan maqsadlarga erishishda hamkorlikdagi boshqaruvni joriy etishga yo'naltirilganligi kabi masalalar yoritib berilgan.

Umumiy o'rta ta'lismuassasalari oldida turgan maqsadlarga erishish mazkur ta'lismuassasalari rahbarlari, pedagog-xodimlar va boshqa texnik xodimlarning birgalikdagi samarali faoliyati, ya'ni hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida hamkorlikdagi faoliyatni ma'lum bir izchillikda muvofiqlashtirishni, ya'ni ta'lismuassasalarida muayyan ichki tartib-qoidalarni o'rnatilishini talab qiladi.

Hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etishdan asosiy maqsad – umumiy o'rta ta'lismuassasalari oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muassasaning hayotiy faoliyatini ta'minlash va takomillashtirish yo'nalihsidagi masalalarni hal etish, muammolarning ijobiy echimini topish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va rivojlantirish, turli xil masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoa barcha a'zolarining ishtirokini ta'minlash, hamda belgilangan maqsadlarga erishishda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Hamkorlikdagi boshqaruv faoliyati o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish asosida "inson-inson" munosabatlari, shuningdek, insonning tashqi muhit bilan munosabatlari, tarbiyaviy munosabatlar shaklida, ya'ni umumiy o'rta ta'lismuassasalarining maqsadi va jamoa a'zolarining ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishdagi o'zaro aloqalar shaklida tashkil etiladi.

Hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatining maqsadi ob'ektiv bo'lib, o'z o'rnida barcha ishtirokchilar tomonidan belgilanadi va uning natijalariga nisbatan barchada qiziqish shakllanadi.



Hamkorlikdagi boshqaruv faoliyati sub'ektlar tomonidan lavozimi yo'nalishidagi funksiyalarini bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat oldindan belgilangan maqsadga erishish yo'nalishida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida umumiyo'rta ta'limga muassasalari rahbar xodimlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyati orqali belgilanadi.

Hamkorlikdagi boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi, ya'ni bu jihatlar o'z-o'zidan maqsadga ko'ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi o'zaro hamkorlik, o'zaro tushunish, o'zaro ta'sir jarayonining samarasi, jamoadagi qulay ruhiy muhit, jamoa a'zolari uchun yaratilgan shart-sharoitlar orqali belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'limga muassasalarining asosiy maqsadi umumiyo'bilib, u o'zgarmasa-da, mazkur maqsad belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar hamda jamoa a'zolarining tarkibi o'zgarishi natijasida hamkorlikdagi faoliyatning samaradorligi o'zgarishi mumkin. Demak, belgilangan maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladigan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatining samaradorligi jamoadagi qulay ruhiy muhit, jamoa a'zolari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, rahbarlar, mutaxassislar va ijrochilarining bilimi, kasbiy ko'nikma va malakalari darajasiga bog'liq.

Umumiy o'rta ta'limga muassasalarida o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchan, o'z ishining ustasi bo'lgan, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chiqur bilgan, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola biladigan, mактаб, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya oladigan rahbar xodimlarning faoliyat ko'rsatishi talab etiladi.

SHu bilan bir qatorda hamkorlikdagi boshqaruv, umumiy o'rta ta'limga muassasalarining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish, mazkur jarayon ishtiroychilari uchun boshqaruv faoliyati va uning huquqiy asoslarini, ish vaqtini taqsimlash va undan samarali foydalanish, qaror qabul qilish, qarorlarning ijrosini ta'minlash shakllarini, strategiya va strategik boshqaruv sirlarini, motivlashtirish nazariyalari va xodimlar faoliyatini baholash turlarini bilish, muassasaning rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarini, inson resurslarini boshqarish sirlarini bilish va strategik tafakkurga ega bo'lish zaruriyatini belgilaydi.

SHuningdek, umumiy o'rta ta'limga muassasalari rahbar hodimlari boshqaruvning funksional jihatlarini o'zlashtirishi va motivlar bilan bog'liq omillarni boshqarishi moddiy va ijtimoiy-psixologik rag'batlantirish tizimini yaratish, samarali mehnatni, ishga bo'lgan tashabbuskorlik, ijodiy munosabatni shakllantirishi, maqsadga erishishda jamoa va shaxs ehtiyojlarini hisobga olishi, dam olish vaqtidan unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratishi, muassasada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni, shaxslararo va guruhlararo eng maqbul aloqalarni vujudga keltirish va qo'llab-quvvatlash, xodimlarning tartibli va do'stona ishlashiga, har bir shaxsning aqliy va ahloqiy salohiyatini namoyon etishiga sharoitlar yaratishi, o'qituvchi va boshqa xodimlarning birgalikda amalga oshiradigan mehnat natijalaridan ularning teng darajada qoniqish hosil qilishlariga erishishi, rahbarlik uslublarini vaziyatga bog'lay bilishi va ularidan oqilona foydalanishi, ta'limga muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirishi, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va takomillashtirish yo'nalishidagi zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.



YUqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblangan ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash, maktab faoliyatini takomillashtirish, innovatsion faoliyat va hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish jarayonida umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarining barchasi ishtirot etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlarida belgilanayotgan talablar ta'lim muassasalarining barcha rahbar xodimlariga tegishli bo'lib, ularning o'z funksional vazifalarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi va ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, ta'lim muassasalari boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni inobatga olish zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqotlar jarayonida aniqlanishicha, ta'lim muassasalarida o'rnatiladigan ichki tartib-qoidalar tashkiliy tuzilish shaklida namoyon bo'ladi va ta'lim muassasalari rahbar xodimlari hamda pedagog xodimlari bajaradigan vazifalar yo'nalishini va mazkur vazifalar o'rtasidagi nisbatni – o'zaro bo'ysunishni belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda pedagoglar faoliyatining muvofiqlashtirilishi, maktab barcha xodimlarining o'z mehnat faoliyatlari natijalaridan teng asosda qoniqish hosil qilishlari, jamoadagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarda o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyat hissining shakllanishi, o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining tashkil etilishi va sifati, o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy jihatdan rivojlanishi, ya'ni sport ishlarini samarali tashkil etish va rivojlantirish hamda o'quv jarayonini hozirgi zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan maktab rahbarlari va pedagog xodimlarning funksional vazifalarini qay darajada tushunib etishi va amalga oshirishiga bog'liq bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirish, uning natijaviyligini ta'minlash, o'quvchilar va pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, maktab bilan mahalla va ota-onalarning hamkorliklarini ta'minlash hamda belgilangan maqsadlarga erishishda hamkorlikdagi boshqaruvni joriy etishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda, professional funksiyalarini rahbar va pedagog xodimlar tomonidan amalga oshirilishini kuzatish mumkin.

CHunki, rahbar xodimlarning o'z funksional vazifalarini bajarishi professional funksiyalarini belgilaydi va bunda rahbar xodimlar professional-mutaxassis sifatida doimo insonlar bilan munosabatda bo'ladi va bu o'z navbatida, boshqaruv faoliyati ijtimoiy-psixologik funksiyalarini ham qamrab olishini ifodalaydi.

Bu funksiyalar ma'lum bir tizimda rahbarning bo'ysunuvchilar bilan muloqoti jarayonida amalga oshirilib, bunday muloqotlar bevosita va bilvosita shaklda bo'lishi mumkin, mazkur funksiyalar ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladigan vazifalarning mazmun-mohiyati va yo'nalishlariga ko'ra rahbarlar va pedagog xodimlarning funksional vazifalari va boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishi jarayonida kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining funksional vazifalarining maqsadi, vazifasi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:



- ta'lismuassasalarini boshqarishda pedagog xodimlar, ota-onalar va o'quvchilar o'rtasidagi bevosita o'zaro ta'sir jarayonini kuzatish;
- barcha uchun zarur va qulay bo'lgan ruhiy muhitni vujudga keltirish, tarbiyaviy munosabatlarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish;
- laboratoriya xonalarini o'quv jarayoniga tayyorlash, o'quv jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- dars mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish uchun zarur bo'lgan ilmiy-metodik va o'quv adabiyotlari, texnika vositalari, texnologik jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o'quv-metodik va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash;
- ta'lismuassasalaridagi mavjud munosabatlarni, o'quvchilarning jismoniy, ruhiy va intelektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, ularga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi jamoa a'zolarining faoliyatini, ya'ni o'qituvchilar bilan o'quvchilar, ota-onalar bilan mакtab hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'r ganish va tahlil qilish;
- ta'lismuassasalarida mavjud ziddiyatlarni hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlash va tahlil qilish;
- kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish;
- o'quvchilarning qobiliyati, bilim olishga va o'r ganishga bo'lgan qiziqishi, ulardag'i ijobiy va salbiy hislatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash hamda ularga ta'sir ko'rsatishning eng maqbul yo'llarini belgilash;
- o'quvchi-yoshlarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish, ularni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak ahloq, buyuk ajodolar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga, ularning qiziqishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish; ta'lism-tarbiya jarayonining holati to'g'risida ishonchli axborotlar toplash, qayta ishlash va ob'ektiv baholash;
- ta'lismuassasalarining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash hamda uning faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida qarorlar qabul qilish;
- innovatsion jarayonlarni tashkil etish va uning natijaviyligiga ishtirokchilarning qiziqishlarini shakllantirish;
- ta'lismuassasalarining asosiy maqsadi bo'lgan muassasasada ta'lism tizimini rivojlantirish, ta'lism-tarbiya jarayonida ko'zlangan natijalarga erishish yo'nalishida hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish kabi vazifalarning bajarilishi jarayonida ta'lismuassasalari rahbar xodimlari ta'lismuassasalarini boshqarishda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi axborot-tahlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko'rish-rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshiradilar.

Bizning fikrimizcha, ta'lismuassasalari rahbar xodimlari o'z funksional vazifalarini amalga oshirishi uchun tashkil etiladigan faoliyatning mazmun-mohiyati yuqorida keltirilgan funksiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari ta'lismuassasalarida hamkorlikda boshqaruvni tashkil etish zaruriyatini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'lismuassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, belgilangan maqsadlarga erishishda hamkorlikdagi boshqaruv muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda jamoaviy boshqaruv organlari hamda jamoatchilik tashkilotlarining ishtiroki va ularning faolligi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi..



References:

1. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Fan. – 2008. – 169 b.
2. Turg'unov S.T. Uluqov N.M., SHodmanov Q.O., Maqsudova L.A.. Ta'lismuassasalarida boshqaruv. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan. – 2008 y.
3. Turg'unov S.T., Axmedova N., SHodmanov Q.O. Umumiyo'rta ta'lismuassasalari rahbarlari kasbiy kompetentliligini rivojlantirish. – Namangan: "Namangan", 2012.
4. SHodmanov Q.O., Xatamova R.Z. Ta'lismifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyati. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021 yil maxsus son, 789-794-betlar.
5. . SHodmanov Q.O., Yuldashev M. Oliy ta'lismuassasalri professor-o'qituvchilarida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish vositalari.. THE JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES ISSN 2181-1385 volume 2, issue 10 October 2021. 882-889.
6. Odilxanovich Sh.Q. et al. MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 5. – №. 1. – S. 395-400.